

8-1-2018

METHODS FOR MODERNIZATION OF AGRICULTURE AT ECONOMICAL REFORMS

B. Shermukhamov

Tashkent Financial institute

I. Salokhiddinov

Tashkent Financial institute

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance>

Recommended Citation

Shermukhamov, B. and Salokhiddinov, I. (2018) "METHODS FOR MODERNIZATION OF AGRICULTURE AT ECONOMICAL REFORMS," *International Finance and Accounting*: Vol. 2018 : Iss. 4 , Article 9.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2018/iss4/9>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in International Finance and Accounting by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

Shermuxamov B.U. – TMI, o‘qituvchi
Saloxiddinov I.A. – TMI, talaba

IQTISODIY ISLOHATLARNI AMALGA OSHIRISHDA QISHLOQ XO‘JALIGINI MODERNIZATSIYA QILISH ISTIQBOLLARI

Maqolada qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlar to‘g‘risida, shuningdek, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini yanada rivojlantirish masalasi ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, tashqi savdo, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, agrotexnika, eksport, meva va sabzavotlar.

В статье изучены рассматриваются текущие реформы и структурные преобразование в сельскохозяйственном секторе, а тоже вопрос дальнейшего развития экспорта сельскохозяйственной продукции в стране.

Ключевые слова: сельское хозяйство, внешняя торговля, сельскохозяйственные продукты, сельскохозяйственная техника, экспорт, фрукты и овощи.

In the article, we studied the achievements in the field of agriculture and changing of structure of agriculture and also, the problem of the further development of agricultural exports in our country.

Key words: agriculture, foreign trade, agricultural products, agricultural engineering, exports, fruits and vegetables.

Kirish

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlarida, shu jumladan, agrar sektorda ham keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish O‘zbekiston iqtisodiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, fermer va dehqon xo‘jaliklari, agrofirma hamda qishloq xo‘jaligi subyektlarini har tomonlama rag‘batlantirish masalasi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 22-oktabrdagi “O‘zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4478 sonli Farmoni[1], 2015-yil 29-dekabrda PQ-2460 sonli “2016-2020 yillarda qishloq xo‘jaligini isloh qilish va rivojlantirish choralari to‘g‘risida” gi Qarori[2] shuningdek, 2015-yil 15-dekabrda “Fermer xo‘jaliklarini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari maydonlarini maqbullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 362-sonli qonuni bu boradagi fikrimizga huquqiy asos bo‘ladi[3]. Ushbu normativ hujjatlar ijrosini ta‘minlash hamda O‘zbekiston Respublikasining 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar

strategiyasining uchinchi, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarning uchinchi bandi qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotida qanchalik dolzarb va ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar yoki muammolar ko‘pgina tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan va qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish borasidagi o‘z xulosa va takliflarini ilmiy ish va maqolalarida keltirib o‘tishgan. Masalan, E.Ergashev muallifligida “Agrar tarmoq xo‘jaliklarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari va omillari”[4] mavzusidagi ilmiy maqola, B.Salimov, M.Yusupovlar muallifligida “Chuqur tarkibiy o‘zgarishlar va modernizatsiya orqali qishloq xo‘jaligini jadal rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari”[5] mavzusidagi ilmiy maqola hamda B.Nasimov muallifligida “O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining innovatsion faoliyati samaradorligi”[6] mavzusidagi ilmiy maqolalar shular jumlasidandir. Yuqoridagi keltirib o‘tilgan barcha tadqiqotchilar qishloq xo‘jaligida va texnologiyalardan foydalanish, mahsulotlar hosildorligini oshirish va eksport salohiyatini oshirish g‘oyalarini ilgari surgan. Lekin, E.Ergashev o‘z ilmiy maqolasida shuningdek, eksport salohiyatini oshirishda marketing siyosatini qo‘llash va tez-tez qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yarmarkalarini tashkilni etib turish taklif etgan. Shu bilan birga O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga mo‘ljallangan agrosanoatni rivojlantirishda keng ko‘lamli islohotlar va sifat o‘zgarishlari, ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo‘jaligi ekinlarini rayonlashtirish bo‘yicha har tomonlama chuqur o‘ylangan siyosat amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizning eksport salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish, tashqi bozorlarda raqobatbardosh yangi va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlarini eksportga yetkazib berish hajmlari va turlarini ko‘paytirish ustuvor yo‘nalish qilib belgilangan. Ushbu vazifani hal etishda “O‘zagroeksport” aksionerlik jamiyati alohida o‘rin tutadi. “O‘zagroeksport” aksionerlik jamiyati yangi va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qiluvchi tashqi savdo kompaniyasidir. Kompaniya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 7-apreldagi PQ-2515-sonli qaroriga asosan tashkil etilgan bo‘lib, “O‘zbekoziqovqatxolding” xolding kompaniyasi tarkibiga kiradi. “O‘zagroeksport” AJ xorijiy hamkorlar bilan tuzilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri eksport kontraktlari, shuningdek, fermer va dehqon xo‘jaliklari, agrofimlar, qayta ishlash tashkilotlari bilan tuzilgan vositachilik shartnomalari asosida yangi va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari eksportini amalga oshiradi. “O‘zagroeksport” AJ faoliyati asosan tashqi bozorlarda xaridorgir bo‘lgan raqobatdosh yangi va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlarini eksportga yetkazib berish hajmlari va turlarini ko‘paytirish hamda eksport geografiyasini kengaytirishga yo‘naltirilgan. “O‘zagroeksport” AJ tarkibiga quyidagi tashkilotlar kiradi: savdo-logistika markazlari, savdo-xarid bazalari, tayyorlash, saqlash, va saralash bo‘yicha sovetlash omborlari, xorijdagi savdo uylari va vakolatxonalar, oziq-ovqat mahsulotlari uchun qadoqlash mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar, ixtisoslashgan transport-

logistika korxonalari, “Xalq oziqa mollari ko‘rgazma yarmarka savdosi respublika markazi” hamda “Oziq-ovqat laboratoriyasi” sifat va standartlashtirish boshqaruvi tizimi markazi shular jumlasidandir[7]. Bir so‘z bilan aytganda, hukumatimiz tomonidan meva-sabzavot eksporti sohasini huquqiy va tashkiliy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi eksportning o‘shiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning 2016-yil yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan yig‘ilishida qilgan ma‘ruzasida quyidagilar qayd qilingan: “Iqtisodiyotning tarmoqlarida, aniq korxonalarda, shaharlar va tumanlarda, ayniqsa qishloq joylarda mavjud ahvolni chuqur o‘rganish zarur bo‘ladi ... Fermer xo‘jaliklari yetarlicha aylanma mablag‘lar, zaruriy texnika va boshqa moddiy-texnik vositalarga ega emas, bu qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligiga, shartnoma majburiyatlarining bajarilishi va, umuman, fermer xo‘jaliklarining rentabelligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda”.[8, 23-bet].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 4-yanvardagi “Qishloq xo‘jaligining texnik jihozlash darajasini yanada oshirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” PQ 3459-sonli Qarori[9] va 2018-yil 29-maydagi “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga mexanizatsiya va servis xizmatlarini ko‘rsatish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorni amalga oshirilishi ko‘zda tutilayotgan islohotlarga huquqiy asos bo‘ladi[10]. Qishloq xo‘jaligidagi mexanizatsiya xizmatlari bo‘yicha tizimli muammolar belgilab olindi. Qishloq xo‘jaligi texnikasidan foydalanish samaradorligini ta‘minlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga ko‘rsatilayotgan mexanizatsiya va servis xizmatlari ko‘rsatish darajasini oshirish “Uzagroservis” aksionerlik jamiyati tashkil etildi. “Uzagroservis” aksionerlik jamiyati O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi qishloq xo‘jaligi texnikasini yetkazib berish, ta‘mirlash hamda mexanizatsiya va servis xizmatlarini ko‘rsatish orqali qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishni ko‘zda tutadi. Ushbu chora-tadbirlar mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, sanoat usulida chuqur qayta ishlash va ichki iste‘mol dan ortiq qismini jahon agrar va oziq-ovqat bozorlarida manfaatli narxlarda eksport qilish, mahsulot yetishtirish hajmini keskin ko‘paytirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar ko‘rishga, o‘z navbatida, meva-sabzavot va uni qayta ishlash asosida tayyorlangan mahsulotlar eksportini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotimiz qishloq xo‘jaligini takomillashtirish va undan samarali foydalanish maqsadida olib borilgan bo‘lib, respublikamiz har bir hududlarini rivojlantirish bo‘yicha vazifalar belgilab olindi. Tadqiqot jarayonida taqqoslash, guruhlash, iqtisodiy-statistika va SWOT tahlil usullaridan keng foydalanildi. Tadqiqot natijasida agrar sektorga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar tahlil qilinib, ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalardan mamlakatimizda olib borilayotgan agrar islohotlarda hamda qishloq xo‘jaligini takomillashtirish bo‘yicha maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish

va mamlakatimiz eksport salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etishi ko‘zda tutilgan.

Tahlil va natijalar.

Ma’lumki, muhtaram Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” Davlat dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dasturda bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish qanchalik dolzarb va ahamiyatga ega ekanligi, jumladan:

- tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish orqali qishloq xo‘jaligini izchil rivojlantirish, mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash va eksport salohiyatini yuksaltirish;

- paxta va boshqali don ekin maydonlarini qisqartirish evaziga kartoshka, sabzavot, poliz, ozuqa va moyli ekinlar, yangi intensiv bog‘lar va uzumzorlar maydonini kengaytirish va optimallashtirish;

- sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, meliozatsiya va irrigatsiya ob‘ektlarini rivojlantirish, tarmoqqa intensiv, suv va resurslarni tejaydigan, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori texnikalardan foydalanish;

- qishloq xo‘jaligi ekinlarining kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy yer-iqlim va ekologik sharoitlarga mos yangi seleksiya navlarini va yuqori mahsuldorlikka ega chorva zotlarini yaratish hamda joriy etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish;

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash asosida oziq-ovqat va qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqaradigan zamonaviy qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish va modernizatsiya qilish;

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, tayyorlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish;


- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish, sotish, agrokimyoy, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlarini ko‘rsatish infratuzilmalarini rivojlantirish;

- global iqlim o‘zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo‘jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta‘sirini yumshatish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar ko‘rish[11].

Ushbu “Harakatlar strategiyasi” Davlat dasturining hamda huquqiy-normativ hujjatlarning ijrosini ta‘minlash maqsadida qishloq xo‘jaligini jadal rivojlanishini har tomonlama qo‘llab quvvatlash, ilg‘or va samarali innovatsion agrotexnika va agrotexnologiya vositalaridan hamda rivojlanishning intensiv usulidan foydalangan holda sifatli yetishtirilgan meva va sabzavotlarni xorijiy mamlakatlarga eksport qilish va jahon bozorida o‘zbek brendiga ega bo‘lish iqtisodiyotimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Mamlakatimizning eksport salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish, jahon bozorlarini marketing jihatdan chuqur tadqiq

qilish asosida tashqi bozorlarda xaridorgir bo‘lgan raqobatdosh yangi va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlarini eksportga yetkazib berish hajmlari va turlarini ko‘paytirish belgilab olingan.

Qishloq xo‘jaligini tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish orqali agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish istiqbolda amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Agrar sektorda amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishlar natijasida o‘tgan 2000-2017 yillar oralig‘ida yalpi ichki mahsuloti tarkibida qishloq xo‘jaligining salmog‘i va qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining yillik o‘sish sur‘atlarini tahlil qilib o‘tamiz (1-rasmga qarang).




1-rasm. Respublikamizda qishloq xo‘jaligi rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari¹.

2017-yilda bu ko‘rsatkichning yillik o‘sish sur‘ati 2% ni tashkil etib, hisob-kitoblarga ko‘ra buning natijasida 2000-2017 yillar oralig‘ida yillik o‘rtacha o‘sish sur‘ati 5.89% aylandi. 2000-2012 yillarda oralig‘ida mamlakat yalpi ichki mahsulotida qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining salmog‘i kamayib borish tendensiyasi kuzatilgan bo‘lsa, oxirgi besh yilda barqaror dinamik o‘sish tendensiyasi kuzatilmoqda, ya‘ni 2012-2017-yillar oralig‘ida o‘rtacha 17.1% ulushga ega ekanligini aytish mumkin.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligiga respublikamizdagi har bir hududlarni tahlil qilish orqali baho beramiz. 2017-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmi 69 504.2 mlrd. so‘mni yoki 2016-yilning mos davriga nisbatan 102.0 foizni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 68 906.7 mlrd. so‘mni (101.9 foiz), o‘rmon xo‘jaligida – 117.9 mlrd. so‘mni (101.6 foiz), baliq xo‘jaligida – 479.6 mlrd. so‘mni (126.8 foiz) tashkil qildi. Hududlar miqyosida tahlil

¹O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti www.stat.uz ma‘lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.


qilganimizda, eng ko‘p 13% ulushga Samarqand viloyatiga to‘g‘ri keladi va bu 9088.2 mlrd. so‘m qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tashkil etadi. Toshkent viloyati umumiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 12% ini ya‘ni 8424.7 mlrd. so‘mni tashkil etadi. Andijon viloyatiga 7415.1 mlrd. so‘m (11%) qishloq xo‘jaligi mahsulotlari to‘g‘ri keladi. Surxondaryo viloyatiga 6317.7 mlrd. so‘m (9%) qishloq xo‘jaligi mahsulotlari to‘g‘ri keladi. Farg‘ona viloyatiga 6018.8 mlrd. so‘m (9%) qishloq xo‘jaligi mahsulotlari to‘g‘ri keladi. Buxoro viloyatiga 5775.3 mlrd. so‘m (8%) qishloq xo‘jaligi mahsulotlari to‘g‘ri keladi. Qashqadaryo viloyatiga 5690.3 mlrd. so‘m (8%) qishloq xo‘jaligi mahsulotlari to‘g‘ri keladi. Namangan viloyatiga 4890.3 mlrd. so‘m (7%) qishloq xo‘jaligi mahsulotlari to‘g‘ri keladi. Navoiy viloyatiga 3853.9 mlrd. so‘m(6%) qishloq xo‘jaligi mahsulotlari to‘g‘ri keladi. Xorazm viloyatiga 3780.6 mlrd. so‘m (5%) qishloq xo‘jaligi mahsulotlari to‘g‘ri keladi. Jizzax viloyatiga 3399.4 mlrd. so‘m (5%) qishloq xo‘jaligi mahsulotlari to‘g‘ri keladi. Sirdaryo viloyatiga 2902.3 mlrd. so‘m (4%) qishloq xo‘jaligi mahsulotlari to‘g‘ri keladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasiga 1958.6 mlrd. so‘m (3%) qishloq xo‘jaligi mahsulotlari to‘g‘ri keladi. Ushbu ko‘rsatkichlar orqali har bir hududning qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish salohiyatiga baho berish mumkin.



2-rasm. 2017-yildagi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari mahsulotlarining umumiy hajmining hududlar o‘rtasidagi taqsimoti².

Ma‘lumki, 2017-yildagi yalpi ichki mahsuloti tarkibidagi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari mahsulotlari 17.3% ulushga ega. Qishloq xo‘jaligiga to‘liq baho berish maqsadida har bir hududda qishloq xo‘jaligining o‘rni va mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga ta‘sirini tahlil qilamiz (3-rasmga qarang).

²O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti www.stat.uz ma‘lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.



3-rasm. 2017-yildagi qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaliklari rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlari³.

Respublikamiz iqtisodiyoti bir biriga yaqin boʻlgan hududlardan tashkil topgan, shu jumladan, hududlar kesimida qishloq xoʻjaligining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushini tahlil qilamiz. Eng koʻp ulush Surxondaryo viloyatiga toʻgʻri keladi, yaʼni hududdagi umumiy mahsulotning 40.3% i qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini tashkil etadi. Sirdaryo viloyati hududidagi umumiy mahsulotning 36.9% i qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini tashkil etadi. Jizzax viloyati hududidagi umumiy mahsulotning 35.2% i qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini tashkil etadi. Andijon viloyatida hududidagi umumiy mahsulotning 33.4% i qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini tashkil etadi. Samarqand viloyati hududidagi umumiy mahsulotning 32.2% i qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini tashkil etadi. Buxoro viloyati hududdagi umumiy mahsulotning 31.0% i qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini tashkil etadi. Namangan viloyati hududidagi umumiy mahsulotning 30.9% i qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini tashkil etadi. Fargʻona viloyati hududidagi umumiy mahsulotning 23.4% i qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini tashkil etadi. Toshkent viloyati hududidagi umumiy mahsulotning 23.1% i qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini tashkil etadi. Qashqadaryo viloyati hududidagi umumiy mahsulotning 22.6% i qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini tashkil etadi. Navoiy viloyati hududidagi umumiy mahsulotning 18.5% i qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini tashkil etadi. Respublikamizda eng kam ulushga Qoraqalpogʻiston Respublikasiga toʻgʻri keladi, yaʼni hududdagi umumiy mahsulotning 15.2% i qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini tashkil etadi.

Xulosa va takliflar

Yuqorida keltirilgan tahlil natijalariga asosan, mamlakatimizda yetishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlari eksportini yanada rivojlantirish boʻyicha quyidagi taklif va xulosalarni berishimiz mumkin:

- meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlab chiqarish jarayoniga innovatsion texnologiya va texnikalarni jalb etish natijasida mahsulot tannarxini kamaytirishga erishish;

³Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi sayti www.stat.uz 2017-yil maʼlumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

- respublikamizda xalqaro meva-sabzavotlar yarmarkalarini tez-tez tashkil etish va buning natijasida eksport qilinayotgan xorijiy mamlakatlar sonini va eksport salohiyatini oshirish;

- respublikamizning barcha viloyatlarida meva-sabzavotlar saqlashga mo‘ljallangan sovitgichlarni tashkil etish orqali mamlakat ichki bozorini 12 oy meva-sabzavotlar bilan ta‘minlash;

- respublikamizda yetishtirilgan meva-sabzavotlarni zamonaviy ilg‘or quritish texnologiyalarni joriy qilish va mavjudlarini modernizatsiya qilish;

xorijiy mamlakatlarga eksport qilinayotgan meva-sabzavotlarni sifat jihatdan monitoring qilish tashkilotini joriy qilish va bu orqali xorijiy mamlakatlarda o‘zbek meva-sabzavotlarining obro‘sinini oshirish. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi portali)

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish orqali ekologik toza, hosildorligi yuqori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish natijasida mamlakat eksport salohiyatini va aholi farovonligini oshirish nazarda tutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4478 sonli Farmoni. 2012 yil 22 oktabr. www.lex.uz (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi portali)

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2016-2020 yillarda qishloq xo‘jaligini isloh qilish va rivojlantirish choralari to‘g‘risida”gi PQ-2460 sonli Qarori. 2015 yil 29 dekabr. www.lex.uz (O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari milliy bazasi portali)

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Fermer xo‘jaliklarini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari maydonlarini maqbullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 362-sonli Qonuni. 2015 yil 15 dekabr. www.lex.uz (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi portali)

4. E.Ergashev “Agrar tarmoq xo‘jaliklarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari va omillari”// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №5, 2015 yil.(3-6 betlar)

5. B.Salimov, M.Yusupov “Chuqur tarkibiy o‘zgarishlar va modernizatsiya orqali qishloq xo‘jaligini jadal rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari”// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №2, 2017-yil.(2-5 betlar)

6. B.Nasimov “O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining innovatsion faoliyati samaradorligi”// “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. №1, 2018 yil.(3-5 betlar)

7. www.uzagroexport.uz “O‘zagroeksport” aksionerlik jamiyatining ma'lumotlari.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning 2016-yil yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy Dasturning ustuvor yo‘nalishlariga

bag‘ishlangan kengaytirilgan yig‘ilishidagi ma‘ruzasi. www.uza.uz (O‘zbekiston Milliy axborot agentligi)

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligining texnik jixozlash darajasini yanada oshirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” PQ 3459-sonli Qarori. 2018-yil 4-yanvar. www.uza.uz (O‘zbekiston Milliy axborot agentligi)

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab ishlab chiqaruvchilarga mexanizatsiya va servis xizmatlarini ko‘rsatish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorni. 2018-yil 29-may. www.uza.uz. (O‘zbekiston Milliy axborot agentligi)

11. 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. 2017-yil. www.uza.uz. (O‘zbekiston Milliy axborot agentligi)